

101

1. Berilganlardan nechtasi qismlaridan biri paronim juftiga ega bo'lган qo'shma ot hisoblanadi?

1) hammabop; 2) sofdil; 3) tustovuq;

4) sherdil; 5) xushbichim; 6) toshbaqa

A) uchtasi B) ikkitasi

C) bittasi D) to'rttasi

2. Quyidagilardan yetakchi morfemasi bir bo'g'indan iborat yasama so'zlarni belgilang.

1) serhosil; 2) yarqiroq; 3) yuum;

4) to'pla; 5) susay; 6) o'zgacha.

A) 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 5 C) 5, 6 D) 1, 3, 6

3. Ushbu gapdagi ismlar guruhiba mansub yasama so'zlar tarkibida munosabat shakllari necha o'rinda qatnashgan?

Hunar ado bo'lmas boylikdir. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u pinhoniylikni yoqtiradi. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozona olmaydi, Shu o'gitlarga amal qilishga odatlaning.

A) 4 o'rinda B) 5 o'rinda

C) 2 o'rinda D) 3 o'rinda

4. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lesi bir mayin.

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.

Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y. (S.Zunnunova)

She'riy parchadagi fe'lli so'z birikmalarini sonini aniqlang.

A) 7 B) 4 C) 5 D) 6

5. Yasalish asosi ham, yasalma ham omonimlik xususiyatiga ega so'zlarni belgilang.

1) kulgich; 2) bog'li; 3) sochma;

4) bo'g'ma.

A) 1, 2, 4 B) 1, 3 C) 2, 3 D) 2, 3, 4

6. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganiningni bilishni istasang, atrofdagi onalarga qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.

Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
C) ergashgan qo'shma gap
D) aralash murakkab qo'shma gap

7. **n** va **ng** undoshlari qaysi xususiyatlari ko'ra farqlanadi?

A) jarangli-jarangsizligiga ko'ra
B) hosil bo'lish usuliga ko'ra
C) shovqinli yo sonor ekanligiga ko'ra
D) tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra

8. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lesi bir mayin.

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.
Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y. (S.Zunnunova)

She'riy parchadagi fonetik o'zgarishlar haqidagi noto'g'ri hukmlarni belgilang.

1) Ikki o'rinda portlovchi undosh tushgan;

2) Uch o'rinda portlovchi tovush sirg'aluvchi tovushga almashgan;

3) Ikki o'rinda portlovchi tovush ortgan;

4) Bir o'rinda tor unli tushgan.

A) 2, 4 B) 1, 3 C) 2, 3 D) 1, 4

9. Urxun yozuvlari – ko'zimga ziyo,
Bobolardan qolgan tabarruk meros.
Siz bitgan toshni aylab to'tiyo,
Ming bora ko'zlarga surtsak-da, bu oz!

Ushbu she'riy parchada unli(lar) va sirg'aluvchi undosh(lar)dan iborat so'zlar soni nechta?

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2 ta

10. Tarkibida lablarning ishtirokiga ko'ra bir guruhga mansub unlilar qatnashgan qo'shma fe'l ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Choyxonachi patnisda non bilan qand-qurs, kabobpz kabob ko'tarib chiqdi.
B) Sizning takliflaringizni qabul qilaman.
C) Oygul turishi bilan Saroy charaqlab ketdi.
D) Hakim bobo har bir niholni farzandidek avaylab parvarish qilardi.

11. – *Ilgari qayerda ishlagsiz?*

- *Dastavval Surxondaryoda, keyin Qarshida.*

Ushbu diologik parcha tarkibi haqidagi to'g'ri hukmlarni belgilang.

1) shaxsi ma'lum gap mavjud;
2) shaxsi noma'lum gap mavjud;
3) to'liqsiz gap mavjud;
4) ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gap va darak gaplardan tashkil topgan.

A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 4
C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4

12. *Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o'xshaydi: goh to'lib, goh ozayib turadi. Xalqimiz faqat jisman emas, balki ruhan ham uyg'oq bo'lmos'i darkor. O'z tarixi va ajodolarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi. Inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lish uchun tug'iladi.*

Ushbu matnda bitishuvli so'z birikmalarida hokim qism vazifasini bajaruvchi so'z(lar) qaysi bo'laklarga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan?

A) faqat egaga nisbatan
B) ega, kesim va vositasiz to'ldiruvchiga nisbatan
C) ega va vositasiz to'ldiruvchiga nisbatan
D) ega va kesimga nisbatan

13. *Odamning kuchli quroli aql va zakovat hisoblanadi. Olamning cheksiz sirlarini bilish, inson ehtiyojlarini qondirish hech qanday kuch tenglasha olmaydigan aqlni talab qiladi.*

Ushbu parchada qaysi gap bo'laklari uyushib kelgan?

A) ega, to'ldiruvchi, hol
B) ega, ega, to'ldiruvchi
C) ega, ega, hol
D) kesim, ega

14. *Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar, Sha'niga barcha el rahmatlar aytar, Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi - Yurak qo'ri bilan toshni eritar.*

Berilgan she'riy parchadagi otlashgan sifatlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelgan?

A) vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim
B) vositasiz to'ldiruvchi, ega, ega
C) vositali to'ldiruvchi, ega, ega
D) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim.

15. Ega qatnashgan ajratilgan bo'lakli gapni toping.

A) Bu dam quyosh kuladi - shodon va quvnoq.

B) Paxtakor o'zbekman - zabardast, mag'rur!
C) Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yuvchilar uchun eng birinchi galda onalarning ma'naviy qiyofasi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir.

D) Bog'imizda turli mevalar: olma, o'rik, giloslar gulladi.

16. Quyidagi qaysi gaplarda shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha(lar) qatnashgan?

1) Vatan - kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi.
2) Qizcha qo'g'irchog'ini astagina yotqizib qo'ydi.
3) Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.
4) Sotqinlarga safimizda o'rinn yo'q.

A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 3 D) 3, 4

17. Qaysi gapda otlashgan so'z aniqlovchi vazifasida kelgan?

- A) Tarozining yukli pallasi bo'sh palladan doim pastroqda turadi.
 B) Haytda doim ham istaganimiz amalgaloshmasligiga ko'nikishimiz zarur.
 C) Ijod jarayonida yozuvchi o'zining ustida ko'p ishlaydi.
 D) Oilani muqaddas bilmaganlar uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.

18. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin.

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allayin.

Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,
 Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y. (S.Zunnunova)

She'riy parchada fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar tarkibidagi ochiq bo'g'inalar sonini aniqlang.

A) 9 B) 8 C) 7 D) 6

19. Quyida berilgan hukmlarning nechta to'g'ri emas?

- 1) Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.
 2) -ki yuklamasi yordamida bog'langan qo'shma gaplarda bosh gap tarkibida ergash gapga havola qiluvchi bo'lak bo'ladi;
 3) Ergashgan va bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchi vazifasidagi so'z bilan bog'lanishi mumkin.
 4) Yuklama-bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda payt, zidlik, ketma-ketlik ma'nolari ifodalanishi mumkin.
 A) bittasi B) ikkitasi
 C) uchtasi D) to'rttasi

20. Qaysi javobda yasalish asosi bilan bir xil so'z turkumiga mansub bo'lgan yasama so'zlar ko'satilgan?

1) ilmparvarlik; 2) chayqa 3) zargarlik;

4) unumdor; 5) uquvsizlik; 6) notebris.

- A) 3, 6 B) 1, 3, 4, 5, 6
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 6

21. Quyidagilardan tazod san'ati qo'llangan barcha baytlar ko'rsatilgan javobni toping.

1) Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,

Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

2) Sarvi nozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam, Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim eshit.

3) Har nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim, Ashk selobida vayron o'ldi obodim eshit.

4) Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig', Necha kunlar bo'ldi hargiz qilmading yodim, eshit.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 3
 C) 1, 2, 3, 4 D) faqat 3

22. Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,

Bulbul o'lgandek xazon fasli gul-u gulzorsiz.(Navoiy)

Ushbu baytda quyidagi she'riy san'atlardan qaysi biri qo'llanmagan?

- A) tanosub B) tashbeh
 C) tazod D) talmeh

23. "Tokaygacha insonlar yahshat sahrosida qolur! Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharafli, sof, pok yashamog'i kerak".

Ushbu fikrlar quyidagi qaysi badiiy qahramon tilidan aytilgan?

- A) Bobur ("Yulduzli tunlar")
 B) Ulug'bek ("Ulug'bek xazinası")
 C) Navoiy ("Navoiy")
 D) Buxoriy ("Me'mor")

24. Radiflar ishlatalishi jihatidan Navoiyning qaysi dostonichalik boshqa biror dostoni rang-baranglikka ega emas?

A) "Farhod va Shirin"

B) "Sab'ayi sayyor"

- C) "Layli va Majnun"
 D)"Saddi Iskandariy"

25. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning dastlabki kitobi qanday atalgan?

- A) "Go'zallik izlab"
 B) "Birinchi mo'jiza"
 C) "Zamon.Qalb.Poeziya"
 D) "Adabiyot – hayot darsligi"

26. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida qanday insoniy fazilatni "... axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir" degan mazmunda ta'riflaydi?

- A) saxovatni B) bilimni
 C) hilmi D) himmatni

27. Qaysi g'azal radd ul-qofiya asosida yozilgan?

- A) «Yo'q» radifli g'azal (Navoiy)
 B) «So'r» radifli g'azal (Fuzuliy)
 C) «Vasl uyin obod qildim...» deb boshlanuvchi g'azal (Nodira)
 D) «Mani jondin o'sondurdi...» deb boshlanuvchi g'azal (Fuzuliy)

28. N.Rahmanovning "Turk xoqonligi" risolasida bayon etilishicha, Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan turk zodagonlarining o'g'illaridan biri kim edi?

- A) Kultegin B) To'nyuqq
 C) Eltarish D) Istamin

29. "Sohibqiron" dramasida Amir Husayn Amir Temurga shunday deydi:

"Men bilardim, moyil eding sarbadorlarga, Dordan olib qolgan eding ulardan birin... Ushbu misralarda ifoda etilgan Sohibqiron saqlab qolgan sarbador kim edi?

- A) Barlos Bahodir B) Mavlonzoda
 C) Piri Zindoniy D) Qosimbek

30. "Advokatlik osonmi?" pyesasidagi pul qarz olib to'y qilgan, lekin qarzini vaqtida to'lay olmagan arobakash kim?

- A) Haydarali B) Egamberdi
 C) Xushvaqt D) Rapoil

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

DILDORA XUDAYBERGANOVA

**Telegram kanalimizga
a'zo bo'ling
@testlidertarix**